



Dadaxon Norkuziyev

Namangan davlat universiteti
Tarix kafedrası katta o‘qituvchisi, PhD.
E-mail: dnorkuziyev@inbox.ru

FARG‘ONA VODIYSI VILOYATLARIDA EKOLOGIK VAZIYATNI YAXSHILASHGA DOIR CHORA- TADBIRLAR VA UNING TARIXIY TAHLILI.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17605962>

Annatatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida Farg‘ona vodiysi viloyatlari ekologiyasining holati hamda uning tashkiliy jihatlari va ushbu tizimdagi vodiylar viloyatlarida davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan ekologik holatni yaxshilashga doir amalga oshirilgan ishlar haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: ekologiya, atrof-muhit muhofazasi, ijtimoiy-ekologiya, atmosfera, aholi salomatligi, Quvasoy sement, agregat, ekologik monitoring, sanoat korxonalari, ekologik-sanitariya, ingredient, “Yashil iqtisodiyot”, Ekologik partiya.

Kirish. Mustaqillikning yillarida O‘zbekiston atrof tabiiy-muhitni muhofaza qilish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi. Shuningdek, davlat siyosatida sanoat hamda agrar sohalarning atrof-muhitga salbiy ta‘siri kamaytirish, ularni bartaraf etish, ekologiya va aholi salomatligining o‘zaro bog‘liqligi kabi masalalar muhim o‘rin tutdi. Bugungi kunda ham O‘zbekistonda ayni sohada islohotlarning borishi, jumladan, Farg‘ona vodiysida ekologik holatni barqarorlashtirish, ekologik muammolarning

ilmiy nazariy asoslarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillik yillarida tarixchi olimlar tomonidan bajarilgan tadqiqotlarda O‘zbekiston, xususan, Farg‘ona vodiysi viloyatlari atrof-muhit muhofazasining ba’zi qirralari ochib berilgan. Mazkur tadqiqot mualliflari Farg‘ona vodiysi viloyatlarining ijtimoiy hayoti va atrof-muhit muhofazasi masalalariga ham qisman e’tibor berganlar. Shuningdek, tarixchilar tomonidan Farg‘ona tarixining dolzarb masalalariga oid tadqiqotlarda vodiylar viloyatlarida vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy hayot va ekologik muammolarning tahliliga ham alohida to‘xtalanganligini ko‘rish mumkin. Farg‘ona vodiysi atrof-muhit muhofazasining ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik sohalariga oid masalalar iqtisodchi, tabiatshunos, geograf hamda ekologlar tomonidan o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda mintaq, xususan, Farg‘ona vodiysidagi mavjud ijtimoiy-ekologik muammolar chuqurlashishi bilan bir qatorda yangi muammolarning vujudga kelishi to‘g‘risida dalillar keltirilgan.

Asosiy qism. Davlat idoralarining funksiyalardan biri atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi avvalgi va bugungi kunning ham muhim faoliyati hisoblanadi. Shu o‘rinda, 1993-yilda Farg‘ona viloyati prokuraturasi Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi bilan birgalikda eng yirik hamda atmosfera havosini ifloslantiruvchi moddalar ko‘p chiqaradigan, jumladan, Farg‘onadagi neftni qayta ishlash zavodi, “Farg‘onaazot”, Furan birikmalar kimyoviy zavodlari, Quvasoy sement zavodi, Qo‘qon oltingugurt omborxonasi va boshqalarning havosini muhofaza qilish faoliyati tekshirildi. O‘rganishlar natijasida turli qoidabuzarliklar uchun jazo choralar qo‘llanildi. Masalan, Quvasoy sement zavodida aylanuvchi pechi yaxshi ishlamaganligi sababli 1-sonli ishlab chiqarish rahbari ma’muriy javobgarlikka tortildi[1, – B. 47.]. Bu esa davlat organlari va sohaga oid tashkilotlarning tarmoq muammolarini birgalikda hal etish masalasi sifatida talqin qilinishi mumkin.

Shuningdek, Andijondagi 3-paxta tozalash zavodi shahar markazida joylashgan bo‘lib, uning faoliyatidan hosil bo‘lgan zaharli gazlar shahar atmosferasi, aholi salomatligiga jiddiy zarar keltirgan edi. Viloyat Tabiatni

muhofaza qilish qo‘mitasi sa’y-harakati bilan mazkur korxona ham Oltinko‘l tumaniga ko‘chirildi. Viloyatdagi barcha paxta tozalash korxonalarida ishlab chiqarish chiqindilari va zaharli changga qarshi izchil kurashib kelindi. Natijada ko‘plab korxonalar rekonstruksiya qilinib, Marhamat, Baliqchi va Shahrixon tumanlarida mutlaqo yangi zavodlar qurilib, foydalanishga topshirildi[2].

Sovet davrida Farg‘ona vodiysi qishloq va shaharlarida aholi sog‘lig‘ini saqlash, shahar hamda qishloq ekologiyasi muammolariga yetarli e‘tibor berilmadi. Oqibatda, birgina Marg‘ilon shahrida bolalar o‘limi va homilador ayollarda uchraydigan xastaliklar, yuqumli kasalliklar avj oldi. Chunonchi, XX asrning 90-yillari boshlarida bolalar o‘limi va ayollardagi kamqonlik kasalligi bo‘yicha viloyatdagi eng salbiy ko‘rsatkichli holat Marg‘ilon shaharga to‘g‘ri kelgan. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, ushbu vaziyatni hisobga olgan holda shahar hokimligi bu borada vujudga kelgan muammolarni bartaraf etishga harakat qilgan. Birgina 1993-yilning o‘zida Marg‘ilon shahrida obodonchilik, tozalik, atrof-muhitning musaffoligini ta‘minlash maqsadida 13 million 580 ming so‘mdan ziyod mablag‘ sarflandi. Marg‘ilon shahar hokimiyatida maxsus “Obodonlashtirish” jamg‘armasi tashkil etilib, unga shahardagi barcha mehnat jamoalari, hatto fuqarolar ham imkon darajasida o‘z hissalarini qo‘shdilar[3].

Keyinchalik Toshloq tumanidagi ayrim hududlarda yashayotgan aholi salomatligiga Qirguli sanoat korxonalaridan tarqalayotgan turli gaz va boshqa zararli chiqindilar ta‘sirini aniqlash bo‘yicha tekshirishlar o‘tkazildi. Jumladan “Ekomed” boshqarmasiga birlashgan malakali tibbiyot xodimlari tomonidan tumandagi “Navoiy”, “Oq oltin”, “Leningrad” va “Partiya XXII s‘yezdi” jamoalarida bir hafta davomida 2400 nafar yosh bolalarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlari olib borilgan[4]. O‘rganishlar natijasida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazilganlarning 23 nafari oshqozon ichak kasalligiga chalingani aniqlandi. Shuningdek, o‘sma kasalligiga yo‘liqqanlar 18 ta, qon va qon ishlab chiqaruvchi kasalligi bilan 404 ta, asab kasalligiga 104, nafas yo‘li kasalligi bilan 225 nafar bola og‘rigani aniqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi fan va texnika qo‘mitasi 1994-yil 15-apreldagi

9-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Farg‘ona vodiysining avtomatlashtirilgan ekologik monitoring sistemasini tuzish” dasturi qabul qilindi. Dastur asosida, vodiydagi ekologik sharoitni o‘rganish hamda baholash, ekologik holatni sog‘lomlashtirish uchun tavsiyanomalar berish maqsadida Farg‘ona politexnika instituti qoshida “Mintaqaviy ekologik monitoring ilmiy-tadqiqot markazi” tashkil etildi[5, – B. 144].

Markazning o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga vodiy atmosferasining holati, fauna, flora, yer usti va yer osti suvlari, tuproq qatlami, inson salomatligi, o‘simliklar va jonivorlardagi kasalliklarning tarqalishi, ishlab chiqarish korxonalarining holati haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash vazifalari qo‘yildi. Lekin, bu kabi tadbirlar vaqt o‘tib unutila boshlandi.

Farg‘ona viloyati “Ekosan” jamg‘armasi va tabiatni muhofaza qilish qo‘mitalar bilan hamkorlikda 1995-yil mobaynida yer, suv, havo va bioresurslarni muhofaza qilish bo‘yicha 2845 ta muassasa, sanoat korxonasi va tashkilotda tegishli tartibda tekshirishlar o‘tkazildi. Tekshirishlar natijasiga ko‘ra, tabiat qonunlarini qo‘pol ravishda buzgan 953 ta holat aniqlanib, bulardan 945 kishi ma’muriy javobgarlikka tortildi va 216091 so‘m jarima solindi[6]. Shaharlar atrof-muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan 261 ta korxona hamda tashkilotning sex va bo‘lim agregatlari to‘xtatib qo‘yildi.

Respublika tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi yordamida ekologik muammolarni o‘rganish va ularni echimini birgalikda hal qilish maqsadida Farg‘ona viloyatiga 1996-yilda Shveysariya xalqaro yordam ko‘rsatish korpusi va Amerika xalqaro rivojlanish agentligi mutaxassislari tashrif buyurdi. Yakunda Shveysariya hukumati tomonidan qo‘mitaning analitik tahlil nazorat laboratoriyasini jihozlash bo‘yicha 75 ming dollarlik jihozlar harid qilindi. Shuningdek, 1997-yilda AQSh xalqaro rivojlanish agentligi tomonidan viloyatdagi ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati atroflicha o‘rganilib, “O‘zneftniqaytaishlash” davlat ishlab chiqarish korxonasi va Quvasoy sement kombinatida ishlab chiqarish sexlarini jihozlash yuzasidan

shartnomalar imzolandi[7]. Bunday chora-tadbirlar aynan iqtisodiy samaradorlikni koʻzlab qolmay, balki atrof-muhit musaffoligi uchun koʻrilgan amaliy ishlardan biri boʻldi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 16-iyundagi “Namangan va Fargʻona viloyatlarida tabiatni muhofaza qilishga doir Qonun hujjatlarining ijrosi toʻgʻrisida”gi Qarori hamda ushbu masala boʻyicha viloyat hokimlari qarorining tegishli korxona va tashkilotlar mutasaddi rahbarlari, hokimliklar tomonidan bajarilishi talab darajasida boʻlmagan. Masalan, Namangan viloyat hokimligi tomonidan hududiy kommunal-foydalanish birlashmasi va Namangan shahar hokimligiga ekologik-sanitariya talablariga javob bermaganligi bois Namangan shahar hududida joylashgan chiqindixonasini konservatsiya qilish va barcha qonun talablariga mos keluvchi yangi chiqindixona qurish vazifasi topshirilgan edi. Ushbu obyekt markazlashgan mablagʻ hisobiga qurilib, 2001-yil birinchi choragida foydalanishga topshirilishi lozim edi.

Bundan tashqari, Namangan shahri markazida joylashgan “Namangan ekstrakt-yogʻ” hissadorlik jamiyati shaharning aholi zich yashaydigan qismiga joylashgan boʻlsa-da, sanitariya-himoya tizimiga ega emas edi. Ushbu korxonani shahardan tashqariga chiqarish boʻyicha jamiyat rahbariyati hech qanday harakat olib bormadi. Shuningdek, viloyatda “Pop-tola”, “Qoʻgʻay-tola” hissadorlik jamiyatlariga ishlab chiqarish binolarini oʻz mablagʻlari hisobidan ekologik xavfsiz joylarga koʻchirish vazifasi yuklatilgan edi. Ammo, ushbu korxonalarning rahbarlari masalaga eʼtiborsizlik bilan qarab kelgan va topshiriq bajarilmagan.

Oʻzbekiston Respublikasi Kommunal xizmat koʻrsatish vazirligi 1999-yil 20-oktyabrdagi qarorda tasdiqlangan tadbirlar rejasini oʻz vaqtida bajarish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qoʻmitasi hamkorligida qoʻshma buyruq qabul qildi. Mazkur chora-tadbirlar rejasiga koʻra, Andijon, Namangan, Fargʻona, Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi chiqindixonalardagi ahvol oʻrganilib, tahlil asosida takliflar tayyorlanishi lozim edi[8, – B. 148].

Farg‘ona vodiysida olib borilgan tabiatni muhofaza qilish bilan bog‘liq jarayonlarda “O‘zgidromed” tomonidan olib borgan ishlar ham o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi. Masalan, Namangan hamda Marg‘ilon shaharlarida 2002-yil mobaynida hisobi olib boriladigan barcha ingredientlar bo‘yicha havoning ifloslanish darajasi vodiyniing sanitariya-gigiena normalariga muvofiq bo‘lsa-da, Andijon va Farg‘ona kabi sanoat shaharlarida esa aksincha, salbiy natija qayd etildi. 2002-yil mobaynida atmosfera havosida Farg‘ona shahrining o‘zida uch, Qo‘qon shahrida esa bir xil ifloslantiruvchi moddalar bo‘yicha sanitariya-gigiena normalari ortganligi kuzatildi[9, – B. 236].

Farg‘ona vodiysida atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha faoliyat olib borgan nodavlat va notijorat tashkilotlari haqida so‘z ketganda, 2001-yili Qo‘qon shahrida tashkil etilgan “Salomatlik Plyus Ekologiya” nodavlat notijorat tashkilotini qayd etish joiz. Ushbu tashkilotning asoschilari tibbiyot hodimlari bo‘lib, ular aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi hamda yangicha ekologik dunyoqarashni shakllantirishga ko‘maklashishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘yishgan edi. Ushbu tashkilot tomonidan “Tozalik – sog‘lik garovi” deb nomlangan loyiha amalga oshirila boshlandi. Mazkur loyihada Qo‘qon shahri hududidan oqib o‘tuvchi Urganjisoy bir necha yildan buyon chiqindiga to‘lganligi, 25 kilometrdan iborat mazkur hududni tozalash masalasi o‘rtaga tashlandi. Natijada mahalliy aholi hashar yo‘li bilan ushbu muammoni bartaraf etdi[10].

Keyingi yillarda Andijon viloyatida atrof-muhitni muhofaza qilishga qisman e‘tibor berila boshlandi. Viloyatda 2005-yilgacha mo‘ljallangan tadbirlarning mazmun-mohiyati atrof-muhitning musaffoligini ta‘minlashga qaratilgan edi. Biroq, o‘rganishlar davomida Andijon viloyatda Dastur ijrosini yetarlicha ta‘minlamagan, shuningdek, “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun talablariga rioya etmagan tashkilot va korxonalar mavjudligi kuzatildi. Xususan, viloyatdagi yirik ishlab chiqarish korxonalaridan “O‘zDEU avto”, “Oltin-Deri” O‘zbek-Turk va “Navoiy interneyshnl” O‘zbek-Amerika qo‘shma korxonalarida chiqindilar bilan bog‘liq masalalar hal etilmagan edi.

Andijon shahrining geografik joylashuvi, chuqurlikda oʻrnashganligi havoga tarqalayotgan ayrim chiqindilarning tarqalib ketishiga imkon bermaydi. Qolaversa, shaharda aholining zichligi, sanoat korxonalarining shu yerda gʻujligi, transport vositalarining tobora koʻpayganligi atrof-muhitga jiddiy taʼsir koʻrsatadi.

2002-yilda Andijon viloyatida 23 ta toʻgarakni birlashtirgan maxsus ekologik markaz tashkil etilib, uning asosiy vazifasiga yoshlarda tabiat, olam haqida toʻliq tasavvurlarni shakllantirish, tabiat bilan inson orasidagi uzviy bogʻliqlik qonuniyatlarini tushunib yetishga koʻmaklashishdan iborat boʻlgan. Markazning Asaka va Shahrixon tumanlarida “Yosh tabiatshunoslar” toʻgaragi ekologik tarbiya berishda sezilarli yutuqlarga erishdi[11].

Tabiatni muhofaza qilishga qaratilgan ishlarni bajarishda davlat idoralari bilan bir qatorda siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari va jamoat birlashmalari ham faol ishtirok etmoqda. Respublikada ekologik muammolar va tabiiy muhitni muhofaza qilishdagi loqaydliklarga chek qoʻyish, ekologik vaziyatni sogʻlomlashtirish kabi masalalarda keng jamoatchilik ishtirokining har tomonlama kuchaytirish, hamda bu borada qabul qilingan qonun hujjatlari ijrosini taʼminlash muhim vazifa sifatida qaraldi.

Shu oʻrinda, 2008-yilda tashkil topgan Oʻzbekiston Ekologik harakati va uning aʼzolariga Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlis qonunchilik palatasidan

15 nafar deputatlik oʻrinining ajratilishi sohaning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur harakat nafaqat umummilliy, balki muayyan hudud, aholi salomatligini saqlash, atrof-muhit ifloslanishi bilan bogʻliq masalalarni aniqlash va ularni bartaraf etish kabi ishlarga keng jamoatchilik eʼtiborini qaratish borasida ham samarali faoliyatni amalga oshirdi.

Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida 2011-yil 28-sentyabr kuni Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasining “Tabiatni muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining “Atrof tabiiy muhit sifatini normativlar bilan

tartibga solish” deb nomlangan bo‘limi 14 va 15-moddalari talablarining Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlaridagi ijrosi yuzasidan qo‘mita eshituviga bag‘ishlangan yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Bu borada atrof muhitga ta‘sirining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori darajalarni tartibga soluvchi tabiiy muhit muhofazasiga oid boshqa ko‘rinishdagi mezonlarni ishlab chiqishi lozim bo‘lgan xo‘jalik yurituvchi subyektlardan Andijon viloyati 379 ta xo‘jalik yurituvchi subyektdan 284 tasida (75 foiz), Namangan viloyatida 270 ta xo‘jalik yurituvchi subyektdan 196 tasida (73 foiz), Farg‘ona viloyatida esa 687 ta xo‘jalik yurituvchi subyektdan 555 tasida (81 foiz) atrof muhitga salbiy ta‘sirining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori darajalarini belgilovchi ekologik me‘yorlar ishlab chiqilishiga erishilgan[12].

Mazkur sohada O‘zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish qo‘mitasi tomonidan Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari hokimliklari bilan hamkorlikda bir qator chora ko‘rilgan bo‘lsa-da, qonun talablari ijrosini ta‘minlash ishlari talab darajasida emas edi. Jumladan, Andijon viloyatidagi atrof-muhitga ta‘sirining yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan eng yuqori darajalarini tartibga soluvchi ekologiya sohasidagi mezonlarni yaratilishi zarur bo‘lgan korxonalarning 25, Namangan viloyatida 27, Farg‘ona viloyatida esa 19 foiz holatida ekologik me‘yorlar ishlab chiqilmagan yoki muddati o‘tgan holda tegishli ekologik me‘yorlarsiz faoliyat ko‘rsatganligi qayd etilgan edi[12].

Davlat organlari va xalqaro tashkilotlarning qo‘llab-quvvatlashi asosida Ekoharakatning hududiy bo‘linmalari ekologiya va tibbiyot sohasida faoliyat olib borayotgan NNT bilan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Jizzax, Qashqadaryo, Sirdaryo, Farg‘ona, Namangan va Toshkent viloyatlarida aholining ekologiyaga oid huquqiy madaniyatini yuksaltirish, ekologik nazoratni amalga oshirish, joylardagi ekologik muammolar yechimini topishga jamoatchilikni keng jalb qilishga yo‘naltirilgan qator loyihalarni amalga oshirdi[13]. Hususan, 2015-yilda o‘z ishini boshlagan “Atrof-muhit muhofazasiga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda O‘zbekiston Ekologik harakatiga

ko‘maklashish” loyihasi doirasida bir qator ishlar amalga oshirildi[14]. Shuningdek, 2015-yil noyabrda O‘zbekiston delegatsiyasi Buyuk Britaniyada bo‘lib, ekologiya hamda atrof-muhitni muhofaza qilish yo‘nalishida faoliyat olib borayotgan davlat va jamoat tashkilotlari vakillari o‘trasida uchrashuvlar o‘tkazdi.

2016-yil 29-noyabrda Namangan viloyatida O‘zbekiston Ekologik harakati va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkilotini O‘zbekistondagi loyihalari koordinatori bilan hamkorlikda “Ekologik muammolarni hal etishda NNTlar ishtirokining huquqiy asoslari, tabiatni muhofaza qilish qonunlari normalarining tadbiq etish mexanizmlari” mavzusidagi konferensiya va seminarlar o‘tkazildi[14].

O‘zbekiston Respublikasida o‘tgan besh yil davomida Harakatlar strategiyasi doirasida barcha sohalar qatori tabiatni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish borasida olib borilayotgan ishlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barqaror rivojlanish kafolati bo‘ldi. Ekologik muammolarning inson xavfsizligiga ta’sirini e’tiborga olgan holda tub islohotlar amalga oshirilmoqda, sohani rivojlantirishning zarur tashkiliy-huquqiy asoslari yaratib kelinmoqda.

Bu borada 30 ga yaqin muhim qonunlar hamda 300 ga yaqin qonunosti hujjatlari hayotga tadbiq etilayotganligi ushbu fikrning yaqqol dalilidir. “Atrof-muhitni muhofaza qilishga doir Konsepsiyasi”, 2019–2030-yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining “Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi, 2019–2028-yillar mobaynida O‘zbekiston Respublikasida bioxilma-xillikni saqlash loyihasi kabi o‘rta va uzoq muddatga mo‘ljallangan dasturlar mamlakatning barqaror rivojlanishini ta’minlashda muhim huquqiy asos hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning 2017-yil 22-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatida O‘zbekiston Ekologik harakati o‘tgan davr mobaynida haqiqiy ma’noda siyosiy kuchga aylanganligiga qaramay, ushbu tashkilot a’zolari parlament Qonunchilik palatasiga belgilangan kvota tartibida kiritilishi uning faol va tashabbuskor bo‘lib ishlashini ma’lum darajada susaytirib kelganligi haqida

to'xtalib o'tdi[15]. Shuningdek, siyosiy kuchlar uchun teng sharoit yaratish va parlament quyi palatasidan Ekologik harakat vakillari uchun alohida o'rin belgilashdan voz kechish payti kelganligi ta'kidlandi. Keyinroq, 2019-yil 24-yanvarda O'zbekiston Ekologik partiyasi tashkil topdi[16]. Yangi partiyaning asosiy maqsadi sifatida barqaror rivojlanishga, ekologik xavfsizlikka erishish, hozirgi va kelgusi avlod uchun tabiiy resurslarni asrab-avaylash hamda qulay atrof muhitni yaratishga yo'naltirilgan davlatning ekologiya sohasiga doir siyosatini amalga oshirish, shuningdek, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni saqlashda davlat, jamiyat va mamlakatning har bir fuqarosining vazifasi bo'lishiga qaratildi.

Xulosa o'rnida shuni qayd etish kerakki, mamlakatda bozor iqtisodiyotiga asoslangan siyosatni yuritilishi natijasida, atrof-muhit muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy-huquqiy sohasi tubdan qayta tashkil etila boshlandi. Shuningdek, atrof-muhit holatining yaxshilanishiga erishish, tabiiy resurslardan unumli foydalanish hamda boshqaruvni rivojlantirishga doir ishlar amalga oshirildi. Farg'ona vodiysida aholi hamda sanoat tarmoqlarining ko'pligi, aholi manzilgohlarining zichligi, ulardan atrof-muhitga turli chiqindi va oqova suvlarning tashlanishi oqibatida ekologik muhit o'zgardi. Shuningdek, Farg'ona vodiysi relefining qozonsimon ekanligi gaz va changlarning tarqalib ketishiga imkon bermaydi. Zavod, fabrikalardan tashqari transport vositalarining yildan-yilga ko'payib borishi ham atmosferaning ifloslanishiga xizmat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'z MA, M.114-fond, 1-ro'yxat, 37-yig'ma jild, 47-varaq.
2. Раимжонов М. Табиат кечирмайди // Андижоннома. 1992 йил. 21 апрель.
3. Комилов А. Мухим – ижтимоий ҳимоя // Олтин водий. 1993 йил 2 март.
4. Каримов С. Экология ва болалар // Коммуна. 1991 йил 2 ноябрь.
5. O'z MA, M.114-fond, 1-ro'yxat, 69-yig'ma jild, 144-varaq orqasi.
6. Иброҳимов О., Шарипов У. Гард юқмасин Фарғонамизга.

Атроф-муҳитни муҳофаза қилиш учун ҳаммамиз масъулмиз // Фарғона ҳақиқати. 1996 йил 4 июнь.

7. Жакпаров С. Табиатни асраш – фарзандлик бурчимиз // Фарғона ҳақиқати. 1997 йил 24 май.

8. O‘z MA, M.37-fond, 1-ro‘uxat, 5293-yig‘ma jild, 148-varaq.

9. O‘zMA, M.37-fond, 1-ro‘uxat, 7821-yig‘ma jild, 236-varaq.

10. “Саломатлик плюс экология” қанот боғлаган ташаббус // Жамият. 2007 йил 8 март.

11. Сотқинов А. Табиатга муҳаббат тасаввурни кенгайтиради // Andijonnomi 2002-yil 23-oktyabr.

12. Қонуннинг Фарғона водийсидаги ижроси ўрганилди [Elektron resurs] // https://parliament.gov.uz/uz/analytics/3786/?sphrase_id=8044183 Murojaat etilgan sana: 20.12.2019-yil.

13. Атроф-муҳитни муҳофаза қилишга жамоатчиликни жалб қилишнинг ташкилий-ҳуқуқий асослари ва механизмлари: Ўзбекистон тажрибаси, халқаро амалиёт // <http://eco.uz/uz/yangiliklar/1636-atrof-mu-itni-mu-ofaza-ilishga-zhamoatchilikni-zhalb-ilishning-tashkilij-u-u-ij-asoslari-va-mekhanizmlari-zbekiston-tazhribasi-khal-aro-amaliyot> Murojaat etilgan sana: 14.02.2020-yil.

14. Экологик муаммолар ва ННТ // Жамият. 2016 йил 2 декабрь

15. Ўзбекистон Республикаси Президент Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. [Elektron resurs] // <https://www.xabar.uz/siyosat/prezident-shavkat-mirziyoyevning-oliy-majlisga-murojaatnomasi> Murojaat etilgan sana: 28.12.2022-yil.

16. Ўзбекистонда экологик партия ташкил этилди. [Elektron resurs] // <http://ekolog.uz/?p=398> Murojaat etilgan sana: 20.11.2021-yil.

MEASURES TO IMPROVE THE ECOLOGICAL SITUATION IN THE FERGANA VALLEY REGIONS AND THEIR HISTORICAL ANALYSIS.

Abstract: This article discusses the state of ecology of the Fergana Valley regions during the years of independence, its organizational aspects,

and the work carried out by state and non-state organizations to improve the ecological situation in the valley regions of this system.

Keywords: ecology, environmental protection, social ecology, atmosphere, public health, Kuvasoy cement, aggregate, environmental monitoring, industrial enterprises, environmental sanitation, ingredient, "Green economy", Ecological Party.

МЕРЫ ПО УЛУЧШЕНИЮ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СИТУАЦИИ В РЕГИОНАХ ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ И ИХ ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Аннотация: В статье рассматривается состояние экологии регионов Ферганской долины за годы независимости, ее организационные аспекты, а также работа, проводимая государственными и негосударственными организациями по улучшению экологической обстановки в долинных регионах этой системы.

Ключевые слова: экология, охрана окружающей среды, социальная экология, атмосфера, здоровье населения, Куvasойский цемент, заполнитель, экологический мониторинг, промышленные предприятия, оздоровление окружающей среды, ингредиент, «Зеленая экономика», Экологическая партия.